



INSON RESURLARINING BOSHQARUVIDA AXBOROT TIZIMLARINI MUVAFFAQIYATLI QO'LLASHGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

D.Gapparova

Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti

Annotatsiya: *Maqolada inson resurlari va iste'dodlarni boshqaruvi (talant menejment) sohasia qo'llaniladigan axborot tizimlarning muvaffaqiyatini o'lchovchi model muhokama qilinadi. Modelda oltita muvaffaqiyat o'lchovlari mavjud bo'lib, bular: tizim sifati, xizmat sifati, tizimdan foydalanish niyatlari, foydalanuvchi qoniqishi va tizimning aniq afzalliklari.*

Kalit so'zlar: *Iste'dodlarni boshqarish; Inson resurslarini boshqarish; HRIS, Axborot tizimlari, Xodimlar platformasining xususiyatlari; Raqamli iqtisodiyot*

FACTORS IMPACTING THE EFFECTIVE USE OF INFORMATION SYSTEMS IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT

Gapparova D

Westminster International University in Tashkent

A model for evaluating the performance of information systems used in the human resources and talent management fields is discussed in the article. The model includes six critical success factors: system quality, service quality, user satisfaction, intentions to utilize the system, and tangible system benefits.

Key words: *Talent Management; Human resource management; Features of HRIS, Information Systems, Personnel Platform; Digital economy.*

KIRISH

Bugungi kunda biznesga oid barcha yo'nalishlar o'zgarib, taraqqiy etib bormoqda, inson resurslari va iste'dodlarni boshqaruvi ham bundan mustasno emas. Inson Resurslarini Boshqarish (HRM) an'anaviy ommaviy xodimlarni boshqarish sifatida tanilgan boshqaruvdan strategik boshqaruvgacha rivojlangan. Hozirgi korxonalarda Inson Resurslari Informatsion Boshqaruvi (IRIB yoki HRIS) eng innovatsion IRB vositalaridan biridir. Kompaniyalar butun Korxonalar Resurslarini Rejalashtirish (ERP) va inson kapitalini boshqaruv tizimlarini raqamlashtirmoqda. Iste'dodlarni boshqarish bulut tizimlari turli IT kompaniyalar tomonidan joriy etilmoqda, hamda firmalar tomonidan ichki tartibda foydalanaish maqsadida ishlab chiqilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ming yillikning boshidan beri inson resurslarini boshqaruvini raqamlashtirish jarayoni rivojlangan davrlarda ommabop amaliyotga aylanib bormoqda. Biroq oxirgi o'n yillikda rivojlanayotgan davlatlarining faqat ba'zi korxonalarida va xalqaro





korxonlarda, IRIB tizimi joriy qilindi va ishlatila boshlandi (Ali Quaosar, G. and Rahman, M., 2021). Samarali axborot tizimlari, shu jumladan IRIB, unumdorlik va xizmat sifatini oshirish bilan birga, xarajatlarni kamaytirdi (Zainol, Fernandez, & Ahmad, 2017) va shuningdek korxonalarining strategik qarorlar qabul qilishida raqobatbatdosh ustunlikka ega bo'lish imkonini berdi. (Moussa & El Arbi, 2020). Zamonaviy dunyoda axborot tizimlarini inson resurslari va iste'dodlarni boshqaruviga bog'lash shubhasiz muhimdur. Shu sababli bu maqolada biz IRIB ni korxonalariga integratsiya qilishdagi muvaffaqiyat omillarini aniqlaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Joriy tadqiqotda 2001 va 2021 yillar oralig'ida iste'dodlarni boshqarishni raqamlashtirish va xodimlar platformasining xususiyatlari mavzulasida nashr etilgan yigirmata ilmiy tadqiqotdan iborat maqolalardan foydalanildi. Dastlab axborot tizimlarini baholash modellari ichida Boston Consulting Group ning Raqamlar Akseleratsiya Indeksi va Deloitte ning Raqamli Yetuklik modeli kabi modellar o'rganib chiqildi. Keyinchalik esa, Delone va McLean (2003) axborot tizimlari muvaffaqiyat modeli analizi bo'yicha nashrlarni inson resurslari axborot tizimi va iste'dod boshqaruvi muvaffaqiyatning oltita o'lcham bo'yicha turkumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Turli xil axborot tizimlari (IS) platformalarini baholashda, biz qaysi biri korxonaga uchun eng manfaatli va foyda olib kelishini hisobga olishimiz kerak. Bu vaziyatda to'g'ri axborot tizimi platformasini tanlashimiz uchun sistema dizayni, ma'lumot sifatining protsesi, ichki mijoz tajribasi, yakuniy mahsulot sifati kabi ko'p omillarni hisobga olishimiz kerak. IS platformalarini baholash uchun Boston Consulting Group ning Raqamli Akseleratsiya Indeksiga asoslangan 27 ta o'lchamni baholovchi so'rovnomaga yordamida korxonaning raqamli yetukligini baholash yoki Deloitte Raqamli Yetuklik Modeli bilan korxonani o'sishga yetaklaydigan 5 ta asosiy va 28 ta yordamchi o'lchovlar yordamida raqamli yetuklikka erishtiruvchi turli modellar mavjud. Biroq, axborot tizimlari tadqiqotida eng nufuzli modellardan biri bu axborot tizimi muvaffaqiyat modeli, boshqacha qilib aytganda, IS muvaffaqiyati modeli yoki 1992 yildagi Delone va McLean IS muvaffaqiyat modeli. Dastlab nazariya William H. Delone va Ephiram R. McLean tomonidan 1992 yili ishlab chiqilgan, keyinchalik soha olimlari va mutaxassislar tomonidan fikr mulohozalar o'rganilib 2002 yili model yangilangan.

Bu model axborot tizimlarining muvaffaqiyatini chunish uchun oltita muhim o'chamlarga e'tibor qaratadi (1-rasm): ma'lumot sifati, tizim sifati, xizmat ko'rsatish



sifati, tizim ishlatish xohishi, mijoz mamnunligi, va tizimning umumiy foydasi.

1-rasm: Delone va McLean Axborot Tizimi Muvaffaqiyat Modeli



Manba: Delone va McLean 2003, Delone va McLean axborot tizimi muvaffaqiyatlari: 10 yillik yangilanish, Journal of Management Information Systems.

Ma'lumot Sifati

Axborot tizimlarini baholash modelida, ma'lumot sifati omili eng muhim omil hisoblanadi. Buni baholash uchun ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va yuqori sifatini taqdim etish qodirligi hisobga olinadi. Omillarning o'zaro bog'liqligi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi (Etezadi-Amoli, J. va Farhoomand, A.F. 1996; Seddon, P.B., 1997; Teo, T.S.H. va Vong, P.K, 1998). Ushbu tadqiqotlar "ma'lumotlar sifati" va "individual ta'sirlar" o'rtasidagi bog'liqlik kuchlilikini aniqladi (DeLone va McLean, 2003). Tadqiqotchilar ma'lumot sifati deganda asosan ma'lumotning aniqligi, o'z vaqtidaligi, to'liqligi, tegishlilik va izchillik, individual ta'sir, qaror qabul qilish samaradorligi, ish bo'yicha samaradorligi va ish sifatini nazarda tutishadi

Model yangilangan sari shu narsa aniqlandiki (DeLone va McLean, 2003), ma'lumot sifatining bilan mijoz qoniqishi va mijozning tizim ishlatish xohishi orasida bog'liqlik mavjud ekan. Foydalanuvchining tizimdan foydalanish xohishi va ularning tizimdan ma'mnunligi esa axborot tizimidan olinadigan yakuniy "umumiy manfaatga" ta'sir o'tkazadi.

Tizim Sifati

Tizim sifati axborot tizimining baholanishiga eng katta ta'sir qiluvchi boshqa bir omil. DeLone va McLean (2003) tizim sifati deyilganda mijoz tizimdan xoxlab foydalanib va uni qoniqib ishlatib, kerakli foyda keltira olishi deb xulosa qilishgan. Turli industriyalar uchun axborot tizimi platfo'rmasini tanlashda tizim sifati eng asosiy omillardan biri hisoblanadi, inson resurslari axborot tizimlari (IRAT) bunga yaqqol misol bo'la oladi. IRAT ni Goundar S., Sigh V. va b. (2021), baholashganda tizim sifatini muhim faktorlardan biri ekanini aniqlashgan. Tizim sifatining o'zi ham bir necha omillar yordamida baholanadi (Delone va McLean 2003), bunda mijozlar doimiy



tarzda tizimdan foydalana olishadimi yoki yo'qmi, qanchalik tizim osongina korxonalar talablariga moslasha oladi (Hsiu-Ju Chen, 2010), qanchalik tizim ishlab chiqarayotgan va taqdim qilayotgan ma'lumoti ishonchli, va tizim javob berayotgan vaqt kabilar hisobga olinadi.

Xizmat Sifati

Axborot tizimi platformasining muvaffaqiyatiga axborot sifatidan tashqari, platformani korxonaga tadbiiq qilishdagi servis xizmati ham ta'sir o'takazadi. Delone va McLean (2003) ga ko'ra agar faqat axborot tiziminig muvaffaqiyati o'lchansa, unda eng muxim omil axborot sifati yoki tizim sifati bo'lishi mumkin. Ammo, umumiy axborot tizimi muvaffaqiyat omillarini o'lchasak, unda kor'satiladigan servis sifati eng muhim omil bo'lishi mumkin. Boshqa tadqiqotchilar ham (Pei-FangHsu va boshqalar, 2015) servis xizmati, tizim sifati va axborot sifatini nafaqat tizimni o'rnatayotganda, balki IRAT tizimini o'rnatib bo'lgandan kegin ham mijoz ma'mnunligidagi birinchi darajadagi omil ekanligini tastiqlashdi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar servis xizmati, axborot sifati va tizim sifati o'zaro ta'sir qilgan holda IRAT tiziminig tadbiiq qilinishidan keyingi muvaffaqiyat omili bo'lmish, mijozlar keng foydalanishini yaxshilanishiga ta'sir o'tkazishini aniqlashgan.

Foydalanishdan Istagi

IRAT muvaffaqiyat omillaridan biri korxonalar va tashkilotlarda axborot tiziminini o'rnatish va uni ishlatish niyati mavjudligidadur. Modelga ko'ra ma'lumotlar, tizim va servis xizmati sifati tizimdan foydalanish istagiga ta'sir qiladi (DeLone va McLean, 2003). Shu bilan birga mijozning platfo'rmadan qoniqishi mijoz axborot tizim platfo'rmagini ishlatish niyatiga chmbarchas bog'liq. Delone va McLean (2003) ga ko'ra mijozning "foydalanish istagi" va undan haqiqatda "foydalanishi" orasidagi farq shakllanishiga sabab bo'ladigan omillar mavjud, bular takror foydalanish, davomiylik, intensivlik va foydalanish tabiati. Bundan tashqari ba'zi tadqiqotchilarnig aniqlashiga ko'ra foydalanish istagiga platformaning tipi ham muxim ta'sir qiluvchi omillardan biri ekan, misol uchun insonlarning yangi IS platfo'rmaga bo'lgan munosabati (Barkah va b. 2021). Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra esa (Hsiu-Ju Chen, 2010) ishchilarning elektron ta'lim tizimini ishlatishi ishning so'ngi natijasiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanuvchining Qoniqishi

Foydalanuvchining qoniqishi bir nechta faktorlarga bog'liq, modelga ko'ra bular tizim sifati, ma'lumotlar sifati, servis sifati va tizimni ishlatish va foydalanuvchining undan qoniqish darajasiga ta'sir o'tkazadi. Boshqa tadqiqotlarga ko'ra tizim sifati, ma'lumot sifati, servis xizmati va ayniqsa tadbiiq qilinayotganda ishchilarning yangi tizimga moslashish uchun uyushtirilgan ta'lim sifati foydalanuvchining qoniqish darajasiga juda katta ta'sir o'tkazadi (Nuryanti va boshqalar, 2021). Umumiy qilib aytganda foydalanuvchining qoniqishiga hamma fakto'rlar ta'sir o'tkazadi, bu ko'rsatkich axborot tiziminig turi va tashkilot faoliyat olib borayotgan sanoatga qarab farq qilishi mumkin.

Umumiy Manfaat





Axborot tizimining tadbiiq etish va qo'llashning muvaffaqiyatini o'lchovchi eng asosiy va so'ngi faktor bu tizimning umumiy manfaati xisoblanadi. Bu tizimning korxonaga va/yoki foydalanuvchiga umumiy foyda keltirish qobiliyati. DeLone va McLean (2003) modeliga ko'ra tizimning umumiy manfaatiga ta'sir qiluvchi omillar foydalanuvchining tizimdan qoniqishi va tizimdan haqiqatda foydalanishidir. Shu bilan birgalikda, foydalanish va foydalanuvchining qoniqishiga qayta ta'sir qiluvchi yagona omil korxonaning bu informatsion tizimdan oladigan umumiy manfaatidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Ko'plab korxonalar ma'lumot almashish, suhbat olib borishi, ishchilarning o'zaro hamkorlik qilishi va o'z biznes operatsiyalarini qo'llab quvvatlashda davom etish uchun xodimlar portalidan foydalanishmoqda. Korxonaga va tashkilotlarning cheklangan IT byudjetlari tufayli, xodimlar axborot portallarini sotib olish va ularni tadbiiq etishdan avval, ularning afzalliklarini baholash tadqiqoti va amaliyoti muhimdir. Bu jarayonlarning barchasiga korxonaga sarflayotgan investitsiyalarni ratsionalizatsiya qilish zaruratini vujudga keltiradi (Urbach N. va boshq. 2010). Delone va McLean axborot tizim muvaffaqiyat modeli, xodimlar va iste'dodlarni muvaffaqiyatli boshqarishda ishlatiladigan IT platformasini yetkazib beruvchi kompaniyani tog'ri tanlovini va uni xarid qilishdan oldin yangi tizimning korxonaga qanchalik to'g'ri kelishini aniqlash jarayonini osonlashtirishi mumkin. Bunda taklif qilinayotgan platforma xarid qiluvchi va sotuvchining bir biriga mos kelishi o'ta muhim. Aksariyat hollarda, korxonalar birinchi o'rinda xodimlar boshqaruvi platformalarini baholamasdan turib, biznes maqsadlarini aniqlash to'g'ri deb hisoblashadi, ammo bu haqiqatdan yiroq. Baholash jarayoni e'tibordan chetda qolmasligi kerak bo'lgan muhim bosqichdir. Buning uchun mahsus loyiha jamoasi, korxonaning asosiy proyektlar ustuvorligini belgilovchi korporativ ro'yxat va korxonaga uchun muvaffaqiyatli tizimni yetkazib beruvchi eng ma'qul kompaniyani topishda belgillab berilgan har bir qadam va hisobga olinishi kerak bo'lgan aniq omillar yozilgan talablar rejasini (TR) ishlab chiqadi. (Konkin and Brainard, 2011).

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Ali Quaasar, G. and Rahman, M. (2021) Human Resource Information Systems (HRIS) of Developing Countries in 21st Century: Review and Prospects. Journal of Human Resource and Sustainability Studies, 9, 470-483. <https://www.scirp.org/journal/paperinformation.aspx?paperid=111944>

Barkah Wira Tri, Suroso Arif Imam, Hermadi Irman, FACTORS AFFECTING THE INTENTION TO USE FASHION-RENTING PLATFORM, RJOAS, 2(110), February 2021, pp. 75-84

Etezadi-Amoli, J., and Farhoomand, A.F. (1996), —A structural model of end user computing satisfaction and user performance||, Information & Management, 30, 2 65–73.





Goundar S., Sigh V. (2021), Analyzing Human Recourses Information Systems in Organizations, Enterprise Systems and Technological Convergence, pp. 209-219

Hsiu-Ju Chen (2010), Linking employees' e-learning system use to their overall job outcomes: An empirical study based on the IS success model, Computers & Education, Volume 55, Issue 4, December, Pages 1628-1639

Konkin and Brainard, (2011) –Brainard Strategy: Choosing the Best Talent Management Vendor for You||, Whitepaper Available form: <http://brainardstrategy.com/wpcontent/uploads/2011/10/Talent-Management-Article-final-draft.pdf>

Moussa, N. B., & El Arbi, R. (2020). The Impact of Human Resources Information Systems on Individual Innovation Capability in Tunisian Companies: The Moderating Role of Affective Commitment. European Research on Management and Business Economics, 26, 18-25. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2444883418301992?via%3Dihub>

Nuryanti, Y. ., Hutagalung, D. ., Nadeak, M., Abadiyah, S. ., & Novitasari, D., (2021), Understanding the Links between System Quality, Information Quality, Service Quality, and User Satisfaction in the Context of Online Learning. International Journal of Social and Management Studies, 2(4), 54–64.

Pei-FangHsu, HsiuJu RebeccaYen and Jung-ChingChung (2015), Assessing ERP postimplementation success at the individual level: Revisiting the role of service quality, Information& Management, Volume 52, Issue 8, December, Pages 925-942

Seddon, P.B. A respecification and extension of the DeLone and McLean model of IS success. Information Systems Research, 8, 3 (1997), 240–253.

Teo, T.S.H., and Wong, P.K. (1998), –An empirical study of the performance impact of computerization in the retail industry||. Omega—The International Journal of Management Science, 26, 5 611–621

Urbach, N., Smolnik, S. and Riempp, G., (2010). An empirical investigation of employee portal success. The Journal of Strategic Information Systems, 19(3), pp.184-206. ISSN 0963-8687, Available from: <https://doi.org/10.1016/j.jsis.2010.06.002>.

DeLone W. and McLean E. (2003), The DeLone and McLean Model of Information Systems Success: A Ten-Year Update, Journal of Management Information Systems, Spring, Vol. 19, No. 4, pp. 9–30.

Zainol, Z., Fernandez, D., & Ahmad, H. (2017). Public Sector Accountants' Opinion on Impact of a New Enterprise System. Procedia Computer Science, 124, 247-254. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050917329216?via%3Dihub>

